

## SUD TIZMIDAGI ISLOXOTLAR, ERKINLIK VA ADOLAT KAFOLATI

**Vohidov Sardorbek Bahodir o‘g‘li**

Andijon davlat Pedagogika instituti

“Ijtimoiy –gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi ( huquq ta’limi ) mutaxassisligi 2-kurs magistranti “Ijtimoiy fanlar kafedrasi” stajyor o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilyotgan islohotlar, hususan inson huquqlarini mustahkamlash va sud tizmini isloh qilish, sudlar mustaqilligini ta’minalash, halqaro huquq normalariga mofiq inson uning ekinligi va sha’ni qadr-qimmatiga qaratilgan e’tibor va O‘zbekiston qonunchiligidagi sud hokimiyati aks etganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** sud, mustaqillik, inson huquqlari, adolat, erkinlik demokiratiya, qonun, hokimiyat.

**Abstract:** The article focuses on the reforms carried out by the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev, especially the strengthening of human rights and the reform of the judicial system, ensuring the independence of the courts, the dignity and dignity of a person in accordance with the norms of international law. and it is shown that the judiciary is reflected in the legislation of Uzbekistan.

**Key words:** court, independence, human rights, justice, freedom, democracy, law, power.

**Аннотация:** В статье основное внимание уделяется реформам, проводимым Президентом Республики Узбекистан Ш.Мирзиёевым, особенно укреплению прав человека и реформе судебной системы, обеспечению независимости судов, достоинства и достоинства человека. в соответствии с нормами международного

права и показано, что судебная власть нашла свое отражение в законодательстве Узбекистана.

**Ключевые слова:** суд, независимость, права человека, правосудие, свобода, демократия, право, власть.

## KIRISH

Davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi o'lar oq bugungi kunda yurtimizda har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash asosiy vazifa bo'lib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda davlat hokimiyati organlari faoliyatini qonun talablariga mos tarizda faoliyat yuritishiga aloxida etibor va shart sharoyit yaratilib berilmoqda. Xususan Sud huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar, inson huqularini taminlash, demokratik huquq va erkinliklar o'rnatilishi jamiyatda adolatning qaror topishi, insonlar orasida davlat organlariga bo'lgan ishonch va hurmatni oshishiga sabab bo'lmoqda.

## MATERIAL VA METODLAR

Maqolada qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan holda sud hokimiyatidagi islohatlar va inson huquqlarini taminlash borasidagi amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan. Zero, har bir davlatda qabul qilinayotgan qonunlarni ijrosini taminlash, qonun qoydalarni buzganlik uchun javobgarlik choralarini qo'llash, bu borada sud hokimiyatini o'rni va mavqeyiyini oshirish, ularning adolat va oshkoraliq tamaoillariga amal qilgan holda ish olib borishi juda muhim. Sud hokimiyati faoliyati davlatning asosiy qonuni konstitutsiya bilan mustaxkamlanishi ularning faoliyatida adolat va erkinlik kafolati sifatida asos bo'lib hizmat qildi.

## NATIJA VA MULOHAZALAR

Mustaqillikdan oldin insonlar sud hokimiyatini faqat jazolovchi organ sifatida etirof etilardi, bugun yurtimizdagи islohotlar natijasida eski qarash batamom yo'qolib, endi sud insonlarni jazolovchi organ emas balki inson va fuqarolarning huquqlarini erkinliklar va qonuniy manfatlarini himoya himoya qiluvchi organ sifatida tan olindi. Sud hokimiyatini yanada mustaxkamlash borasida bir qator ishlar olib borildi, xususan

2021-yil 28- iyuldagи 703-sonli "Sudlar to‘g‘risidagi" O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun doyrasida sud hokimyatini chinakam mustaqilligi, oshkorlik, qonuniylik va adolatni taminlashda alohida o‘rin egalladi. Qonuning 4 – moddasida sudlarning vazifalari belgilangan bo‘lib: Sudning asosiy vazifalari fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, xalqaro shartnomalarida, shuningdek inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta‘minlashga qaratilgandir.<sup>84</sup> Shu bilan birgalikda 2017-2021-yillarga mo‘jallangan „Harakatlar strategiyasida" ikkinchi ustuvor yo‘nalish „Qonun ustuvorligini taminlash va sud huquq sohasini yanada liberallashtirish" hamda sud tizmini ro‘li va jamiyat hayotidagi o‘rnini yanada mustahkamlash, sudlar faoliyatini oshkorlik, tenglik, adolatli va shaffof tarizda faoliyat ko‘rsatilishi belgilab o‘tildi. Davlatimizning asosy qonuni Konstitutsiyamizda ham sud hokimiyati faoliyatiga alohida etibor berilgan. Xususan Konstitutsiyamizning 106-116-moddalar sud hokimiyati faoliyatiga bag‘ishlanadi. Ushbu qonunning 106- moddasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va boshqa jamoat tashkilotlaridan holi tarizda ish yuritishi va faqat qonunga bo‘yshinishi belgilab o‘tilgan.<sup>85</sup> Ushbu modda shuni ko‘rsatadiki sud hokimiyat barcha davlat organlar va jamoat tashkilotlaridan mustaqil holda faqat qonunga bo‘ysunib o‘z faoliyatini olib boradi. Sudlar faoliyatiga aralashishga va sudiyalarning daxilsizligini buzishga hechkimning haqqi yo‘qligi va bu uchun javobgarlik borligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda sud hokimiyati inson manfa’tlari uchun hizmat qilyapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ularning qonuniy manfatlarini himoya qilishda sudlarning o‘rni beqiyos. Tarixdan malumki inson yaralibdiki uning hayoti sudlar bilan bog‘liq. Hattoki ibtidoiy

<sup>84</sup> [O‘RQ-703-coh 28.07.2021. Sudlar to‘g‘risida \(lex.uz\)](#)

<sup>85</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshketn.,2019

davrlarda ham insonlar o‘z huquqlarini himoya qilishga extiyoj sezganlar. O‘z huquq va manfatlarini himoya qilishga hozirgi kundagi sud deb ataluvchi organlar o‘rnida faoliyat yuritgan qabiyla va oqsaqollar kengashiga murojaat qilishgan. Sudiylar chiqargan qarorlari muhim ahamiyat kasb etib, barcha shubhadan holi va barcha uchun majburiy hisoblangan.

Bugungi kunda ham sud hokimiyatini mustaxkamlash, sudlarning mustaqilligini, adolat, qonuniylik tamoyillariga asoslanib ish olib boorishi halqning ushbu tizimga bo‘gan ishonchini yanada oshiradi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, har bir davlat xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topish uchun eng avvalo o‘z hokimiyatiga ega bo‘lmog‘i lozim. Davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini alohida holda ish olib borishi davlat o‘rganlari faoliyatini samaradorligini oshirish bir-biriga tobeligini kamaytirish uchun asos bo‘lib hizmat qiladi. O‘zbekistonda ham sud hokimiyatini boshqa davlat organlaridan holi va faqat qonunga bo‘ysungan holda ish olib borishi belgilangan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sud-huquq sohasi va inson huquqlarini himoya qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Istiqlol yillarida insonning ishonchli konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarni va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydigan qonunlarning qabul qilinishiga asosiy e’tibor qaratildi. Shuningdek, sud tizimi mustaqil va boshqa tarmoqlarga bog‘liq bo‘lмаган hokimiyat sifatida shakllantirildi. Sud hokimiyatining yangi tuzilmalari vujudga keldi. Sudning huquq doirasi kengaydi. Sudlarda ishlarni ko‘rish sifatini oshirish, ayniqsa, fuqarolik ishlarida ovora bo‘lib yurishlarning oldini olish, aynan bir instansiya sudida ishni bir necha marotaba ko‘rib turli qarorlar qabul qilish amaliyotiga chek qo‘yish vaqtি keldi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni / <https://lex.uz/docs/-4872355>
2. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 22 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2018. 106-116-moddalar.
4. O'RQ-703-соҳ 28.07.2021. Sudlar to'g'risida (lex.uz)

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonuni. 2017 yil 31 may. O'RQ-431-son ;45-modda.